

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Istiqloq va tilshunoslik metodologiyasi	3
Yuldasheva D.N., Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoeitik ifodasi	19
Qurbonova Z.A.	Function of color lexical words, their semantic meaning and translation (in the example of the concepts "white" and "black")	25
Safarova M.Z.	Buxoro toponimiyasida miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlarning o'rni	30
Sulaymonova M.Sh.	Metaforaning jahon adabiyotida o'rganilish tarixi	35
Рузиева М.Х.	Проявление эпитета в виде многозначных прилагательных	41
Джафарова Д.И.	Вербал ва новербал алоқа муносабатларининг таржима жараёнида таржима қилиш муаммолари	46
Toshtemirova S.	Colour naming: semantics of the colour red in english	51
Tojiyeva K.N.	Koreys tilida (Janubiy Koreya) iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning genetik tahlili	55
To'rayeva U.E.	Tilning madaniy normalar, qadriyatlar va an'analarni uzatishdagi roli	61
Soibova G.B.	Lingvokulturologiya tilshunoslikning bo'limi sifatida	66
Sobirova N.G'.	Qoidalarga asoslangan imlo tekshirish usullari	70
Bozorov Z.A.	"Sog'lik" konsepti asosida shakllangan maqollar tadqiqi	76
Davronova Z.B.	Modeling language activity as a scientific text tool	80
Ziyoieva D.A.	Paradigm in linguistics: a scientific overview	85
Yusupova D.Y.	Adabiy manbalarda qimmatbaho tosh nomlari	89
Ermetova J.I., Xo'sinova Z.X.	The linguacultural exploration of metaphors and revealing their cultural values through human character expressions	93
Xamidova M.H.	Fransuz va o'zbek tillarida meteonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari	97
Usmonova U.B.	Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi	103
Usmonov A.Q.	Muloqot jarayonida kulgi uyg'otuvchi vositalar va birliklar	107
Ubaydullayeva M.O'.	Frazologik birliklarning ma'no, grammatik va funksional jihatlari	111
Asadov T.H.	Ot va sifat turkumidagi oraliq so'zlarning ayrim funksional-semantik tabiati xususida	118

Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Graduonimlar tadqiqi	122
Haydarov A.A., Barnoyeva M.A.	O‘zbek va ingliz badiiy adabiyotida antonimik tuzilmalarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	127
Elchaev Z.A.	A study on the grammatical features of behavioral verbs in english and uzbek, including derivation, classification, and syntax	133
Islomova Sh.I.	Badiiy matnda qo‘llangan tibbiy birliklar badiiyati	137
Ismoilova M.Q.	O‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining semantik xususiyatlari	142
Jalolova F.N.	Milliy konseptosferalar tadqiqining lingvomadaniyatshunoslikka doir aspektlari	146
Matmurotova U.B.	Bilvosita tarjimada stilistik vositalar tahlili	151
Muxammadiyev S.B.	Comparative analysis of livestock vocabulary in uzbek and english languages	155
Nurova F.K.	O‘zbek tiliga asoslangan qidiruv tizimida lingvistik ta’minotning o‘rganilishi va ahamiyati	159
Ochilova S.N.	O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida xulq-atvor fe’llarining statistik tavsifi	163
Omarova D.T.	Matnlarni perefraz qilish masalasining tadqiqi	168
Qarshiboyeva A.S.	Xitoy tilida muzeyga doir atamalar tahlili	174
Samandarova G.Y.	Maqollarda raqamlar timsoli (rus xalq maqollari asosida)	178
Sayfullayev X.J.	Frazeologik birlik lingvomadaniyat sifatida	184
Djuraeva G.N.	Badiiy asarlarda barqaror birikmalarning tarjima qilish usullari	190
Mansurova G.M.	Chet tillarini o‘rganishda nemis yoshlari jargoni: xususiyatlari va funksiyalari (youtube video materiallari asosida)	194
Suyarova N.Y., Eshankulova Ch.N.	Metaforalarning o‘zbek va ingliz tilshunosligida o‘rganilishi	198
G‘apporova D.I.	Media linguistics as a linguistical research object (on the example of english and uzbek studies)	202
Gafurova G.B.	Publitsistik matnlar tarjimasida pragmatik intensiyaga erishish usullari (ingliz va o‘zbek gazeta materiallari misolida)	208
Hojiyeva M.G‘.	O‘zbek va ingliz adabiyotida taom leksikasining lingvokulturologik talqini	212

MAQOLLARDA RAQAMLAR TIMSOLI (RUS XALQ MAQOLLARI ASOSIDA)

Samandarova Gulnoz Yarashovna,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

g.y.samandarova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining namunasi hisoblangan maqol va matallarda ifodalangan raqamlarning turli ramziy ma‘nolari, sonlar orqali aks etgan konnotativ semalar tahlil qilingan. Raqamlar orqali shakllangan rus xalq maqollaridagi falsafiy, mifologik hamda ijtimoiy ramzlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, xalq og‘zaki ijodi, ramz, timsol, raqamlar, natural son, birlik son, mifologiya, pentagramma.

СИМВОЛЫ ЧИСЕЛ В ПОСЛОВИЦАХ (НА ОСНОВЕ РУССКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ)

Аннотация. В данной статье проанализированы различные символические значения чисел, выраженные в пословицах и поговорках, являющихся образцами устного народного творчества, коннотативные семы, выраженные через числа. Также освещаются философские, мифологические и социальные символы в русских народных пословицах, которые формируются через числа.

Ключевые слова: пословица, поговорка, устное творчество, символ, эмблема, числа, натуральное число, число единицы, мифология, пентаграмма.

SYMBOLISM OF NUMBERS IN PROVERBS (BASED ON RUSSIAN FOLK PROVERBS)

Abstract. This article analyzes the various symbolic meanings of numbers expressed in proverbs and sayings, which are examples of folk art, and the connotative semantics reflected through numbers. The philosophical, mythological and social symbols in Russian folk proverbs formed through numbers are also highlighted.

Keywords: proverb, saying, folk art, symbol, numbers, natural number, singular number, mythology, pentagram.

Kirish. Maqol va matallar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridir. Ular dunyoning barcha xalqlariga, jumladan, eramizdan oldingi, (miloddan avvalgi) davrlarda yashagan qadimgi misrliklar, yunonlar, rimliklarga ham ma‘lum bo‘lgan. Maqol va matallar hamisha ibratli xususiyatga ega bo‘lib, xalqning muayyan ijtimoiy-tarixiy tajribasini umumlashtirgan.

Shunday maqol va matallar mavjudki, ular inson hayotining barcha jabhalarini o‘zida aks ettirgan. Bunga misol qilib matematika fanini olishimiz mumkin. Maqol va matallarda raqamlar, sonlar, uzunlik hamda vaqt o‘lchovlari ko‘p o‘rinlarni egallagan.

Natural son tushunchasi matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u inson amaliyotining ehtiyojlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Raqamli tasavvurlar xalq donoligining ajralmas qismini tashkil etadi, chunki ularsiz chuqur mantiqiy fikrlash, kuzatish, hushyorlik, boy tafakkur va aqliy qobiliyatlar mavjud emas.

Odamlar azaldan raqamlar haqida turli xil tasavvurga ega bo‘lishgan. O‘tmishda raqamlar haqida fikr yuritishning ba‘zi izlarini ular bilan bog‘liq bo‘lgan xurofiy qarashlarda topish mumkin. Bular xalq orasida og‘izdan og‘izga ko‘chib yuruvchi turli hikoya, afsona, maqol va matallarda o‘z aksini topgan. Odamlar nazdida, raqamlar orasida “omadli” hamda “omadsizlar”i bor. Masalan, toq sonlar, katta birliklar – erkaklik timsolini, juft raqamlar esa ayolni ifodalagan. 5 raqami – birinchi erkak va birinchi ayol raqamlarining yig‘indisi bo‘lib, nikoh yoki ittifoq ramzini ifodalaydi.

Insonlar raqamlar timsolini (ularda ifodalangan ramziy tushunchalarni) yaxshi bilishgan va ulardan turli jabhalarda, xususan, amaliy san‘atda, xalq og‘zaki ijodida, maqol va matallarda keng foydalanishgan. Izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra, raqamlarga munosabat, ularning ramziyligi va turli konnotativ ma‘nolarning

ifodalanishi, qolaversa, insonlar tomonidan raqamlarning ilohiylik xususiyatiga kuchli hayrat eng ko'p miqdorda, shuningdek, ta'sirli va yaqqol ifodalangan janrlar – bu maqol va matallardir.

Har bir xalqning o'ziga xos raqamli belgilar to'plami bo'lgani kabi rus tilida sonlarni o'z ichiga olgan maqol va matallar ham mavjud. Ularda xalqning donoligi, ularning kuzatish qobiliyati va atrofdagi dunyoga munosabatini qisqa va ixcham ifodalash qobiliyati o'z ifodasini topgan.

V. Firsov o'z kitobida sonlar sehri raqamlar bilan birga paydo bo'lganligini ta'kidlagan. Qadim zamonlarda odamlar xudoga qayta-qayta ibodat qilganlar va ularning ta'sirini kuchaytirish uchun esa muayyan miqdorda ushbu marosimlarni takrorlashgan. Shunday qilib, raqamlar atrof-muhitga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muqaddas tushunchalarga aylangan.

Raqamlar ramziyligini Pifagor ixtiro etgan. **Pifagor** (taxm. mil. av. 580, Samos – 500, Metapont) – yunon matematigi, faylasuf, quldor aristokratiyaning g'oyaviy targ'ibotchisi. Uning falsafasida son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik sistemasi, koinotdagi barcha narsa raqamlar zahirida qurilgan, degan g'oyalar ilgari surilgan.

Aynan u “birlik” – yakdillik, hamjihatlik; “ikki” – noaniqlik; “uchlik” – mukammallik ramzini; “to'rtlik” – adolatni ifodalaydi, degan fikrlarni qayd etgan.

Pifagor va uning shogirdlari tomonidan juft va toq raqamlar ajratilgan. Ularning fikricha, toq sonlar yaxshi narsalarni, juft raqamlar esa yomonini ifodalaydi, degan qarashlar bo'lgan. Ammo bu kabi xulosalar tabiat va insolar faoliyatini kuzatmaslik natijasida hosil bo'lgan shunchaki “raqamlar o'yini” ekani olimlarning keyingi tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Birlik sonlar matematiklar ixtirosi bo'lib, hisob-kitob uchun zarur sanaladi. Raqamlarning ilohiyligi va turli ramziy ma'nolarni ifodalashi uchun birlik sonlar muhim ahamiyat kasb etmaydi. Qadimgi matnlarda matematikadagi “bir, birlik” soni kamdan-kam qo'llaniladi va u Xudo, Kosmos, Koinot kabi ma'nolarni anglatadi.

Ruslarda “birlik” birgalikda, hamjihatlikda, yakdillikda harakat qilishni anglatadi. Masalan, *«Один палец согнешь, все согнуться», «В одну дуду дудеть», «Плясать под одну дудку»*.

Sonlar ishtirok etgan rus xalq maqollarida xulosaga shoshilmaslik kerakligi haqida fikrlar mavjud. Chunki ayrim maqollar tarkibida “bir” soni yakka, ayirlik ma'nolarini ham ifodalab kelishi mumkin. Masalan, *«Одним факелом моря не нагреть», «Одним ударом дерева не свалишь»* va *«Одна рука лишь машет, много рук делают дело»*.

Qaldirg'och – bahor elchisi. Lekin ruslarda bitta qaldirg'ochning uchib kelishi bilan bahor keladi, degan xulosaga borish noto'g'riligi haqida quyidagi maqol ishlatiladi: *«Одна ласточка весны не делает»*.

Ikki – butunni qismlarga bo'lish, insonni dunyodan, tabiatdan va boshqa odamlardan ajratish, bir-biri bilan taqqoslash belgisidir. Shuningdek, ushbu raqam inson va uning atrofidagi olam bilan o'zaro aloqa va munosabatlar timsoli sifatida ham ifodalanadi.

Ikki raqami bir nechta vaziyatlarni anglatadi:


- butunning qismlarga bo'linishini;
- qismlarning birlashishi va butunning qismlari o'rtasidagi bog'liqligini;
- qiyos va qarama-qarshilik belgisini: jannat – do'zax, hayot – mamot, qattiq – yumshoq, quruq – ho'l, ruh – tana. Bunga quyidagi maqollar dalil bo'la oladi: *«Гоняться за двумя зайцами, ни одного не поймать», «Две головы лучше, чем одна», «Один и дома горюет, а двое и в поле воюет», «Вести двойную игру», «Сидеть на двух стульях», «Два сапога пара»*.

Uch raqami ruslar uchun sehrli hisoblanadi. Ular ushbu raqam bilan yangi narsa paydo bo'ladi, uch soni – narsalarning asosiy tuzilishi, deb hisoblaydi. Bunda vaqtning (zamon) uchga ajratilishi – o'tmish, hozir va kelajakni ifodalashi asos qilib olinadi. Shuningdek, makonni ham uchga ajratishadi – kenglik, uzunlik, balandlik.

Ko'p xalqlar orasida bo'lgani kabi ruslar uchun uch raqami muqaddasdir. Bibliya kitobida uch raqami – Uchlik (Троица), ya'ni Xudoni ifodalovchi uchlik: Xudo-ota, Xudo-o'g'il va Muqaddas ruh haqida so'z boradi. Shunga ko'ra, xalq orasida *“Бог любит троицу”* paremasi ham shakllangan.

Qolaversa, ruslar nazdida, borliq uchlik asosiga tayanadi, ya'ni boshlanish (ibtido), oraliq o'rtalik va oxir (intiho). Shunga mos ravishda yuqori, oraliq o'rtalik va past tarzidagi bo'linishlar mavjudligini qayd etishadi. Ular uchun uchlik – mukammallik ramzi hamdir.

Uch – dunyo modeli. Uch – bu doimiy harakatlanuvchi butunning qismlari bir-biri bilan yaxshi bog'langan dinamik yaxlitlikda mavjud bo'lgan olamning ramzidir. Rus mifologiyasiga ko'ra, qadim zamonlardan beri yer uchta kit ustida joylashgan, degan e'tiqodlar mavjud.



1.1.-rasm. Rus afsonalariga ko‘ra, Yer 3 kit ustida

Uch raqami ishtirokida bir qancha ruscha maqol va matallar mavjud. Mazkur raqam doimiy harakat va o‘ziga ishonchni ham ifodalab keladi. Masalan:

«И после смерти остается три дня дел»;

«У бездельника три больших дела: есть, спать да умело ругаться»;

«Помни три дела: молись, терпи, работай»;

«Хороший пес охраняет три деревни»;

«За три года и школьная собака научится стихами лаять»;

«Хорошему нужно учиться три года, а дурному – и одного утра довольно»;

«Про одни дрожжи не говорят трижды».

To‘rt ham rus xalqi uchun ramziy va sehrli raqamdir. U, asosan, diniy kitoblarda, masallarda, afsonalarda, maqol va matallarda uchraydi.

To‘rt raqami aniq ma’no va maqsadni anglatgan holda, kundalik ongga qat’iy “muhrlangan” va asosan, statiklik (Statika (grekcha: στατικός [ststike] – jismlarning og‘irligi va muvozanati haqidagi ta’limot) va to‘liqlik bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

To‘rt soni ma’lum bir yangilik, o‘zgarishlar yaratmasa-da, uning boshqa vazifalari bor, ya’ni u hozirgacha yaratilgan narsalarni saqlash xususiyatiga egadir.

To‘rt – puxtalik, o‘zgarmaslik, xavfsizlik, cheklangan makon va vaqt aylanishining belgisi hisoblanadi.

To‘rt insonlar bilan bog‘liq raqam. Insonda to‘rt a’zo bor, dunyoning to‘rt tomoniga sobit nuqtadan qaraladi, to‘rt devorli uyda yashaydilar. Ruslarning “xoch”i koinot mo‘ljali va ramzidir.

Ruslarning tasavvurida ma’budaning to‘rtta qo‘li – qonunlar bilan belgilangan doirada yashaydigan yaxlit dunyoning muhim ramzidir. Ma’budaning bir qo‘li beradi, ikkinchisi oladi, uchinchisi jazolaydi, to‘rtinchisi boshini silaydi.



1.2.-rasm. Rus mifologiyasiga ko‘ra, 4 qo‘lli ma’buda

To‘rt – yopiq o‘zgaruvchan to‘rt faslning takroriy aylanmasi ramzi sifatida ham ifodalanadi. Bular kunning to‘rt qismi – ertalab, kunduzi, kechqurun, tun; yilning to‘rt fasli – bahor, yoz, kuz, qish.

Ruslarda to‘rt raqami ishtirokida *«Старый человек стоит четырех молодых»;* *«Без четырех углов изба не рубится»;* *«Кошка всегда на четыре лапы падает»* kabi maqollar shakllangan.

LINGUISTICS

Besh – bu harakat va erkinlik soni. Aynan mana shu xususiyatlari rus mifologiyasida uning mistik rolini hamda mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Besh – bu katta salohiyatga ega bo‘lgan dinamik keng qamrovli, energiya talab qiladigan raqam. Bu inson va koinot o‘rtasidagi faol munosabatlar ramzi. Besh bir vaqtning o‘zida insonni qurshab turgan olamni o‘zgartirishga, uning barcha o‘zgarishlariga javob berishga qaratilgan kuchdir.

Besh raqami rus xalqlari uchun tamoman “insoniy” son sifatida qabul qilingan. Insoniyat uchun mukammal ijodiy asbob – bu besh barmoq (inson qo‘li). Besh – bu nafaqat beshta barmoq, balki pentagram (Pentagramma (yun. penta — besh va ...gramma) – har bir tomonga bir xil teng yonli uchburchaklar yasalgan muntazam beshburchak. Bu uchburchaklarning yon tomonlari qavariq bo‘lmagan muntazam o‘nburchak hosil qiladi. Muntazam beshburchakning diagonallari pentogrammani tashkil etadi), shuningdek, ushbu ramz beshta sezgi timsoli hamdir.



1.3.-rasm. Pentagramma

Aytish mumkinki, beshlik – bu Uchlikda (Троица) aks etgan umumiy g‘oyaning shaxssizlik nuqtayi nazaridan ifodalovchi varianti sanaladi. Ammo bu yo‘qotish evaziga beshlik o‘zida xarakter va dispozitsiyani olgan, ya’ni aql va yurak, his qilish va tajriba qilish qobiliyatiga ega bo‘ldi.

Besh – bu to‘rtlikning muntazamligi va odatiyligini rad etish, uning turg‘unligiga qarshi norozilik, lekin u kattaroq aql va qobiliyatlari bilan uchning murosasizligidan farq qiladi.

Ijodkor va faol odam uchun besh yaxshi, shov-shuvni yoqtirmaydigan uchun yomon hisoblanadi. Pentagram ramziy ma’no jihatidan o‘ylab topilgan xayoliy shakldir. Agar pentagram yulduzi yuqoriga qarasa, bu foydali timsol. Teskari pentagram esa qora sehr, yovuz kuchlar va shaytonning belgisini bildiradi. Shuningdek, besh soni azob-uqubat, kulfat keltiradi, lekin bir vaqtning o‘zida u azobdan xalos qilish xususiyatiga ham ega, degan tasavvurlar mavjud.



1.4.-rasm. Teskari pentagramma – shaytonning ramzi

Maqollar: «От пяти упавших в море собак вода не помутнеет», «Бог пять пальцев, и то сотворил не одинаковыми», «Вперед взглянешь один раз, оглянешься - пять раз», «Увидеть змею с пятью ногами», «Без пяти минут как», «Хвалил его пятачком», «На словах зарезал пятерых, прорубил десятерых, а стемнело – боится во двор выйти», «Пятая масть в картах».

Shuningdek, besh – hissiyotlar, ijodkorlik va ko‘tarinkilik belgisi. Bu she’riyat, orzular va xayolparastlik parvozlari, ichki tug‘yon va san’at, inson istaklari va ularga erishish imkoniyati. Bu ishonch, umid, sevgi.

Besh – bu erkinlik soni. Tashqi erkinlik, ichki erkinlik: yashash erkinligi, chuqur nafas olish va hech narsadan qo‘rqmaslik erkinligi.

Xans Biderman o‘zining “Ramzlar ensiklopediyasi” nomli kitobida olti ramziy ma’noda eng kam ahamiyatli raqamlardan biri ekanligini aytadi.

Olti insonlar kasbi va xizmatidagi muvaffaqiyatni kafolatlaydi, lekin kurash va mojarolarda mag‘lubiyatga uchrashini bildiradi. Olti raqami manbalarda kamroq tilga olinadi, ammo uning ramziy ma’nosi aniq va ravshan. Olti raqami odamlarni himoya qiladi.

Olti – mehnat va har qanday hunarmandchilikning asosiy soni.

“Olti” raqami orqali hissiyotlar ifodalanmaydi. Buni tabiiy ehtiyojlarni qondirish deb hisoblash mumkin. Bu oddiy inson baxti, salomatlik hissi va sog‘lom his-tuyg‘ular, tabiiy tajribalar belgisi sanaladi.

Yetti – dunyodagi eng “chalkash” raqam. Numerologlar tomonidan qilingan ko‘plab sharhlar bir-biriga zid keladi va bu uning umumiy aksini ko‘rishni yana-da qiyinlashtiradi.

Yetti – g‘ayrioddiy, g‘ayritabiiy qobiliyat va fazilatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan raqam. U oddiy idrokdan tashqariga chiqadigan, tushunarsiz, sirli ko‘rinadigan hodisalarni birlashtiradi.

«За семью печатями» (“Yeti muhr ortida”), shuningdek, «за семью замками» (“yeti qulf ortida”) iboralari ishonchli tarzda yashiringan, sir saqlanganligini anglatadi. Bugungi kunda yetti muhr orqasida yashiringan, erishib bo‘lmaydigan, sehrli himoya ostida va kundalik ma’noda bu sirni ochish yetti kishining rozilgisiz mumkin emasligini anglatadi.

Кота убить – семь лет ни в чем удачи не видеть – Mushukni o‘ldirgan kishidan yetti yil omad yuz o‘giradi; *Увидеть сразу семь ржанок* – ko‘ngilsizlik belgisi; «Семь свистунов» – bu qushlarning qichqirig‘i, muammo, baxtsizlik va hatto o‘limni anglatadi.

Har yetti yilda bir marta ruh va tananing to‘liq yangilanishi sodir bo‘ladi, shuning uchun har yettinchi va to‘qqizinchi yil juda muhim degan fikrlar bor. Ertaklarda yetti aka-uka, yetti opa-singillar uchraydi. Moskva va Rim yetti tepalik ustida joylashgan, deyiladi.



1.5.-rasm. Moskva 7 tepalik ustida

Yetti raqami rus xalq maqollarida ham juda ko‘p miqdorda ishtirok etgan. Jumladan: «Из семи печей хлеб едал», «Семь раз проверь, прежде чем усомниться в человеке», «Хоть семь шкур с волка спусти, а он все волком останется», «Кошка своих котят семь раз перепрячет» и «Не видались семь лет, а поговорить не о чем».

“Dunyoning yetti mo‘jizasi” – arxitektura, haykaltaroshlik va me’morchilikning eng ajoyib va ulug‘vor asarlari ro‘yxati. Bu ham ushbu raqamga ulug‘vorlik va salobat bag‘ishlaydi.

Yeti – bu dunyoda o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan katta kuch va tajriba ramzi hamdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus xalq maqollarida ishtirok etgan raqamlar shunchaki oddiy miqdorni emas, balki turli ramziy sema va konnotativ ma’nolarni ifodalash barobarida, ilohiylik, mo‘jizaviylik hamda mifologik xususiyatlarni ham o‘zida jamlab kelgan.

ADABIYOTLAR:

8. Пословицы русского народа: сборник В.И. Даля.- М.: Рус. Яз.- Медиа, 2004.
9. Старинные русские пословицы и поговорки- М.:Дет. Лит.,1984.
10. Ушакова О.Д. Пословицы, поговорки и крылатые выражения. — Санкт-Петербург: Литера, 2008г.

11. Bozorov Z.A *International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions"* "Imperial College London" 2021-2022. 165-169 б.
12. Bozorov Z.A. *Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.*
8. Bozorova G. *Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language* //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.
9. Bozorova, G. (2023). Лингвопрагматическая характеристика плеонастических единиц используемых в политической речи. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752
10. Samandarova G. Y. *Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences*, 2 (05), 39–42. – 2021.
11. Samandarova G. Y. (2023). *Basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence. International scientific conference " innovative trends in science, practice and education"*, 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
12. Bozorov Z. A. "Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community." *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
13. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. "Great Oriental Intellectuals about Civil Culture." *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
14. Bozorov Z.A. *The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1*
15. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. *Specific characteristics of paremas formed on the basis of "Insect" LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)*
16. Samandarova G.Y. *Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari // Scientific reports of Bukhara state university. 2023/1 (84). –B. 161-165.*